



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL
YANVAR-NOYABR




Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, Toshkent shahrida jami 32 210,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



2023- yil 1-dekabr holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, soni *birlikda*



Yillar kesimida soni



3 614

Bino va inshootlar qurish


715

Fuqarolik obyektlarini qurish

3 035

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 76,8 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,1 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 75,5 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,2 foiz ulushni va 75,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2022- y.	01.12.2023- y.	
Toshkent shahar	9 584	7 364	76,8

tumanlar:

Bektemir	223	181	81,2
Mirzo Ulug'bek	1222	983	80,4
Mirobod	836	658	78,7
Olmazor	779	548	70,3
Sergeli	530	458	86,4
Uchtepa	683	428	62,7
Chilonzor	1213	869	71,6
Shayxontohur	752	541	71,9
Yunusobod	1175	875	74,5
Yakkasaroy	969	743	76,7
Yangiyul	267	266	99,6
Yashnobod	935	814	87,1



2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Mirzo Ulug'bek (13,3)



Yunusobod (11,9)



Chilonzor (11,8)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar	32 210,8	9 090,2	20 144,4	2 976,2
tumanlar:				
Bektemir	930,7	267,4	550,6	112,7
Mirzo Ulug'bek	3 306,5	733,2	2 129,3	444,0
Mirobod	4 369,6	1 344,6	2 789,4	235,6
Olmazor	2 308,8	794	1278,4	236,4
Sergeli	1 359,5	200,4	768,9	390,2
Uchtepa	1 439,2	394,2	835,3	209,7
Chilonzor	3 259,1	709,6	2 355,8	193,7
Shayxontohur	2 808,9	1 204,6	1 364,8	239,5
Yunusobod	5 221,5	1 947,4	2 975,5	298,6
Yakkasaroy	3 250,6	796	2 263,2	191,4
Yangihayot	1 564,3	416,7	949,2	198,4
Yashnobod	2 392,1	282,1	1 884,1	225,9


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 9 090,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 83,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 28,2% ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-noyabr oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 42,9 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 125,7 %) Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 37,3 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,4 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,5 %i to'g'ri kelib, 2022-yil yanvar-noyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 5,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,8 % ni tashkil etgan holda 20 144,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



62,5

2023- yil
yanvar-noyabr


56,6

2022- yil
yanvar-noyabr



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Yunusobod tumanida (2 975,5 mlrd. so'm yoki ulushi 14,8 %), Mirobod tumanida 2 789,4 mlrd. so'm yoki ulushi 13,8 %) va Chilonzor tumanida (2 355,8 mlrd. so'm yoki ulushi 11,7 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 9,2 %ni tashkil etdi yoki 2 976,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 123,5 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 753,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 31 457,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,3 % va 97,7 % ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-noyabr oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,5 %** i yoki **20 144,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

28,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **9 090,2** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **28,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **20 144,4** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **62,5 %** ni tashkil etdi.

62,5 %

9,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **2 976,2** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	32210,8	105,3	100,0
tumanlar:			
Bektemir	930,7	102,8	2,9
Mirzo Ulug‘bek	3306,5	110,8	10,3
Mirobod	4369,6	110,6	13,6
Olmazor	2308,8	118,9	7,2
Sergeli	1359,5	116,8	4,2
Uchtepa	1439,2	80,3	4,5
Chilonzor	3259,1	100,4	10,1
Shayxontohur	2808,9	111,3	8,7
Yunusobod	5221,5	100,4	16,2
Yakkasaroy	3250,6	116,9	10,1
Yangihayot	1564,3	112,0	4,9
Yashnobod	2392,1	88,4	7,4



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,3 % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-noyabr ko'rsatkichiga nisbatan 7,4 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,1 % punktga ko'payib, 61,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga kamayib, 13,1 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 45,6 % ni tashkil etdi va 2022- yil yanvar-noyabrga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 54,4 % (0,4 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari


Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-noyabr

2023- yil yanvar-noyabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % punktga kamaydi va 29,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 70,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % punktga ko'payadi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr

	Qurilish ishlari, mrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	32 210,8	22 162,4	5 028,0	5 020,3
tumanlar:				
Bektemir	930,7	608,9	137,6	184,2
Mirzo Ulug'bek	3 306,5	2 258,5	704,4	343,7
Mirobod	4 369,6	3 366,1	502,6	500,8
Olmazor	2 308,8	1 744,4	297,8	266,6
Sergeli	1 359,5	962,9	201,4	195,2
Uchtepa	1 439,2	860,2	207,9	371,0
Chilonzor	3 259,1	2 258,2	395,9	605,0
Shayxontohur	2 808,9	2011,6	322,4	474,9
Yunusobod	5 221,5	3 618,1	804,4	799,0
Yakkasaroy	3 250,6	2 196,2	718,5	335,9
Yangihayot	1 564,3	1018,8	189,1	356,3
Yashnobod	2 392,1	1258,4	545,9	587,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-NOYABR



ulushi % da



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani (5 221,5 mlrd.so'm), Mirobod tumani (4 369,6 mlrd.so'm), Chilonzor tumani (3 559,1 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (3 250,6 mlrd.so'm) ga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)